UNIVERSITETLARDA KONSALTING XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISH ASOSIDA MOLIYAVIY RESURSLARNI TAQSIMLASHNI BOSHQARISH YO‘NALISHLARI

[1]Salixov Saidamir Alisher o‘g‘li, [2]Artikova Feruza Raxmanovna
[1]Biznes va tadbirkorlik oliy maktabi dotsenti, PhD, [2]Biznes va tadbirkorlik oliy maktabi tinglovchisi
https://doi.org/10.5281/zenodo.18080626

Annotatsiya. *Ushbu maqolada universitetlarda konsalting xizmatlarini rivojlantirish asosida moliyaviy resurslarni taqsimlashni boshqarish yo‘nalishlari bayon etilgan. Shuningdek, universitetlarda konsalting xizmatlarini rivojlantirish asosida moliyaviy resurslarni taqsimlashni boshqarish yuzasidan xulosa va takliflar keltirilgan.*

Аннотация. *В данной статье описываются направления управления распределением финансовых ресурсов на основе развития консультационных услуг в университетах. Также представлены выводы и предложения по управлению распределением финансовых ресурсов на основе развития консультационных услуг в университетах.*

Abstract. *This article describes the directions of managing the allocation of financial resources based on the development of consulting services in universities. It also presents conclusions and proposals on managing the allocation of financial resources based on the development of consulting services in universities.*

Kalit so‘zlar. *Universitet, xizmat, konsalting xizmati, resurs, moliyaviy resurs, boshqarish.*

Ключевые слова. *Университет, услуга, консультационные услуги, ресурс, финансовый ресурс, управление.*

Key words. *University, service, consulting service, resource, financial resource, management.*

Kirish. Bugungi globallashuv va raqobat kuchayib borayotgan sharoitda oliy ta’lim muassasalari faoliyati samaradorligini oshirish, moliyaviy barqarorlikni ta’minlash va ta’lim sifatiga ijobiy ta’sir ko‘rsatuvchi yangi boshqaruv mexanizmlarini joriy etish dolzarb masalalardan biri bo‘lib hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, universitetlarda konsalting xizmatlarini rivojlantirish asosida moliyaviy resurslarni taqsimlashni boshqarish yo‘nalishlarini takomillashtirish masalasi alohida ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi. Buning ushun universitet qoshida faoliyat yurituvchi konsalting markazlari ilmiy salohiyatni tijoratlashtirish, ishlab chiqarish va biznes sub’ektlari bilan hamkorlikni mustahkamlash hamda innovatsion loyihalarni moliyalashtirish imkoniyatlarini kengaytirish lozim.

Adabiyotlar tahlili. Universitetlarda konsalting xizmatlarini rivojlantirish asosida moliyaviy resurslarni taqsimlashni boshqarish yuzasidan turli xil tadqiqotlar olib borilgan. Xususan, tadqiqotlar yoritishicha, universitetlarning moliyaviy qo‘llab-quvvatlash manbalari ta’lim va ko‘chmas mulk aktivlariga sarmoya kiritish doirasida akademik xizmatlarni sotishda uning obro‘ini oshiradigan va foydali loyihalarni amalga oshirishda xarajatlarni kamaytiradigan muhim muammo bo‘lib hisoblanadi. Faqat o‘quv va o‘quv kurslari universitetning moliyaviy resurslariga hissa qo‘shadi. Unga asosan, maslahat xizmatlari, ilmiy tadqiqotlar, konferentsiyalar va seminarlar

universitet moliyaviy resurslariga ta’sir qilmaydi [1]. Boshqa mamlakatlarda olib borilgan tadqiqotlarda esa budjetdan tashqari tadbirlar universitet uchun moliyalashtirishning muhim manbai bo‘lib hisoblanadi. Ushbu mablag‘lardan universitet faoliyati va rivojlanishini qo‘llab-quvvatlash, shuningdek, xodimlarni budjetdan tashqari mablag‘larni jalb qilishga undash uchun samarali foydalanish boshqaruv hisobida axborot texnologiyalaridan foydalanishni talab qiladi [2]. Boshqa xil tadqiqotlar esa ko‘rsatishicha, universitet konsalting xizmatlari zamonaviy oliy ta’limning o‘ziga xos xususiyati bilan bog‘liq bo‘lgan o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘ladi. Bu borada iqtisodiyot universitetlari turli biznes subektlari va mahalliy jamoat guruhlariga keng ko‘lamli konsalting xizmatlarini taqdim etadi [3]. Yana boshqa tadqiqotlarda konsalting xizmatining xizmatning zamonaviy shakli sifatida o‘zaro kelishuvga asoslanishi qayd etiladi. Ya’ni, konsalting xizmatlari xizmat ko‘rsatuvchi va xizmatdan foydalanuvchi tomonidan tuzilgan kelishuv asosida amalaga oshiriladi [4]. Undan tashqari, boshqa bir tadqiqotlarda oliy ta’limni rivojlanishi uning barcha xizmatlarini o‘z ichiga olgan moliyaviy faoliyatni samarali boshqaruvga asoslanishi keltiriladi. Unga ko‘ra, oliy ta’lim tizimining joriy moliyaviy ta’minot holati tizimli yondashuv va zamonaviy boshqaruv mexanizmlari asosida optimallashtirilishi zarur [5].

Tahlil va natijalar. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, konsalting xizmatlari universitetlar uchun qo‘shimcha moliyaviy manba sifatida xizmat qilish bilan birga, mavjud resurslarni maqsadli va samarali taqsimlashda muhim boshqaruv vositasi bo‘lib qaraladi. Moliyaviy resurslarni taqsimlashni boshqarishda konsalting xizmatlaridan foydalanish universitetlar budjeti tarkibini diversifikatsiya qilishga xizmat qiladi. An’anaviy davlat moliyalashtirishiga bog‘liqlikni kamaytirish orqali universitetlar o‘z faoliyatida mustaqillikka erishadi va strategik qarorlar qabul qilishda erkinlik darajasi oshadi. Bu esa ta’lim, ilmiy-tadqiqot va innovatsion faoliyat yo‘nalishlariga ajratiladigan mablag‘larni yanada oqilona taqsimlash imkonini beradi.

Tadqiqot davomida shular aniqlandiki, universitetlarda konsalting xizmatlarini rivojlantirish moliyaviy resurslarni boshqarishning strategik rejalashtirish va moliyaviy prognozlash, xarajatlar samaradorligini baholash va optimallashtirish, investitsiya loyihalarini samaradorligini oshirish, inson kapitaliga yo‘naltirilgan sarf-xarajatlarni asoslash hamda innovatsion va startap loyihalarni qo‘llab-quvvatlash kabi asosiy yo‘nalishlarini shakllantirishga xizmat qiladi. Strategik rejalashtirish jarayonida konsalting xizmatlari esa universitet rahbariyatiga tashqi bozor muhitini tahlil qilish, talab va taklifni baholash hamda uzoq muddatli moliyaviy maqsadlarni belgilashda muhim axborot-tahliliy asos yaratadi. Natijada, moliyaviy resurslar qisqa muddatli ehtiyojlarga emas, ya’ni universitetning uzoq muddatli rivojlanish strategiyasiga muvofiq ravishda taqsimlanadi. Xarajatlar samaradorligini oshirish nuqtai nazaridan konsalting xizmatlari orqali amalga oshiriladigan audit va tahlil ishlari ortiqcha xarajatlarni aniqlash, budjet mablag‘laridan foydalanishda shaffoflikni ta’minlash hamda moliyaviy intizomni mustahkamlashga xizmat qiladi. Ushbu jarayon universitetlarda moliyaviy resurslarni taqsimlashda natijadorlikka yo‘naltirilgan yondashuvni shakllantiradi. Investitsiya loyihalarini boshqarishda konsalting xizmatlari esa ilmiy-tadqiqot natijalarini tijoratlashtirish, texnologik transfer va venchur moliyalashtirish mexanizmlarini joriy etish imkonini beradi.

Shuningdek, inson kapitaliga yo‘naltirilgan moliyaviy resurslarni boshqarishda konsalting xizmatlarining o‘rni alohida ahamiyatga ega. Professor-o‘qituvchilar, tadqiqotchilar va ma’muriy xodimlarning malakasini oshirish va ularni moddiy rag‘batlantirish tizimini takomillashtirish orqali universitet faoliyatining umumiy samaradorligi oshadi. Konsalting xizmatlari ushbu jarayonda mehnat bozori talablarini inobatga olgan holda moliyaviy qarorlar qabul qilishga imkon beradi.

Innovatsion va startap loyihalarni qo‘llab-quvvatlash yo‘nalishida konsalting xizmatlari esa universitetlar uchun moliyaviy boshqaruv unsuri bo‘lib hisoblanadi. Startap inkubatorlar, akseleratorlar va innovatsion markazlar faoliyatini moliyalashtirish orqali universitetlar yangi biznes g‘oyalarni qo‘llab-quvvatlaydi. Yuqoridagilardan kelib chiqib, universitetlarda konsalting xizmatlarini rivojlantirish asosida moliyaviy resurslarni taqsimlashni boshqarish quyidagi yo‘nalishlarga ajratiladi (1-jadval).

1-jadval

Universitetlarda konsalting xizmatlarini rivojlantirish asosida moliyaviy resurslarni taqsimlashni boshqarish yo‘nalishlari

№	Boshqaruv yo‘nalishi	Konsalting xizmatlari mazmuni	Moliyaviy resurslarni taqsimlashga ta’siri
1	Strategik moliyaviy rejalashtirish	Universitet rivojlanish strategiyasini ishlab chiqish hamda moliyaviy prognoz va ssenariy tahlilini amalga oshirish	Uzoq muddatli maqsadlarga mos budjet taqsimoti shakllanadi
2	Budjetlashtirish va xarajatlarni optimallashtirish	Xarajatlarni samarali sarflash rejasi va dasturini shakllantirish	Mablag‘lar samarali yo‘nalishlarga qayta taqsimlanadi
3	Qo‘shimcha daromad manbalarini shakllantirish	Ilmiy-tadqiqot, ta’lim va ishlab chiqarish konsaltingini amalga oshirish	Davlat mablag‘lariga bog‘liqlik kamayadi
4	Investitsiya va innovatsion loyihalarni boshqarish	Startaplar, innovatsion loyihalarni baholash va moliyalashtirish	Investitsiya resurslari maqsadli taqsimlanadi
5	Inson kapitaliga investitsiyalar kiritish	Kadrlar salohiyatini baholash va rag‘batlantirish tizimini ishlab chiqish	Maosh, grant va malaka oshirish xarajatlari asoslanadi
6	Risklarni boshqarish	Moliyaviy va institutsional risklarni tahlil qilish	Xavfli yo‘nalishlarga ajratiladigan mablag‘lar nazorat qilinadi
7	Monitoring va nazorat	Moliyaviy ko‘rsatkichlar monitoringi va KPI tizimini ishlab chiqish	Budjet ijrosi ustidan nazorat yanada kuchayadi

Mazkur 1-jadval universitetlarda konsalting xizmatlarini rivojlantirish orqali moliyaviy resurslarni taqsimlashni boshqarishning asosiy yo‘nalishlarini tizimli ravishda aks ettiradi. Unda har bir boshqaruv yo‘nalishi, unda qo‘llaniladigan konsalting xizmatlari, moliyaviy resurslarni taqsimlashga ta’siri hamda kutilgan natijalar o‘zaro bog‘liq holda yoritilgan. Mazkur keltirilgan yo‘nalishlarni quyidagicha izohlash mumkin:

Birinchi yo‘nalish strategik moliyaviy rejalashtirish sifatida universitetning uzoq muddatli rivojlanish maqsadlariga mos moliyaviy siyosatni shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. Ya’ni, konsalting xizmatlari orqali amalga oshiriladigan prognoz va ssenariy tahlillari budjet mablag‘larini samarali taqsimlashga xizmat qiladi.

Ikkinchi yo‘nalish budjetlashtirish va xarajatlarni optimallashtirish bo‘lib, u moliyaviy resurslardan foydalanish samaradorligini oshirishga qaratiladi. Ushbu yo‘nalishda konsalting xizmatlari ortiqcha xarajatlarni aniqlash va ustuvor yo‘nalishlarga yo‘naltirish imkonini beradi.

Uchinchi yo‘nalish qo‘shimcha daromad manbalarini shakllantirish sifatida universitetlar moliyaviy mustaqilligini ta’minlashga xizmat qiladi. Ya’ni, konsalting faoliyati natijasida olinadigan daromadlar ta’lim sifati, ilmiy tadqiqotlar va moddiy-texnik bazani rivojlantirishga yo‘naltiriladi.

To‘rtinchi yo‘nalish investitsiya va innovatsion loyihalarni boshqarishga asoslanadi. Bu orqali ilmiy-tadqiqot natijalarini tijoratlashtirish orqali moliyaviy resurslarni ko‘paytirish va ularni maqsadli taqsimlash imkonini yaratadi.

Beshinchi yo‘nalish inson kapitaliga investitsiyalarni aks ettiradi. Unga asosan, professor-o‘qituvchilar va tadqiqotchilar malakasini oshirish hamda ularni moddiy rag‘batlantirish orqali universitet faoliyati samaradorligini oshirish ta’minlanadi.

Oltinchi yo‘nalish risklarni boshqarish bo‘lib, bu yo‘nalish moliyaviy barqarorlikni ta’minlashda zarur. Unga ko‘ra, konsalting xizmatlari orqali xavfli yo‘nalishlar oldindan aniqlanib, mablag‘larni oqilona taqsimlash imkoni yaratiladi.

Yettinchi yo‘nalish monitoring va nazoratni o‘z ichiga oladi. Unga asoslan, moliyaviy resurslar taqsimoti va ularning ijrosini baholashda shaffoflikni ta’minlaydi. Hamda KPI va monitoring tizimi orqali budjet mablag‘larining maqsadli sarflanishi nazorat qilinadi.

Xulosa. Universitetlarda konsalting xizmatlarini rivojlantirish asosida moliyaviy resurslarni taqsimlashni boshqarish tizimini takomillashtirish ta’lim muassasalarining raqobatbardoshligini oshirish, moliyaviy barqarorlikni ta’minlash hamda innovatsion rivojlanishga erishishda muhim omil bo‘lib hisoblanadi. Bu orqali universitetlarga qo‘shimcha daromad olish va o‘z ilmiy salohiyatini iqtisodiy qiymatga aylantirish imkonini taqdim etadi. Mazkur yo‘nalishda amalga oshiriladigan islohotlar universitetlarni zamonaviy bozor iqtisodiyoti talablariga moslashtirish, ularning milliy va xalqaro ta’lim makonidagi mavqeini mustahkamlashga xizmat qiladi. Bu esa kelgusida barqaror daromad manbalarini shakllantirishga olib keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Al-Ghaswyneh O.F.M. Marketing universities’ services role in providing financial resources. // J. Financ. Serv. Mark, 25. - p. 65-75 (2020). https://doi.org/10.1057/s41264-020-00075-9
2. Мухаметшин Э.Р., Агарков Г.А. Взаимодействие финансово-экономического блока с подразделениями университета с применением электронного документооборота и онлайн-доступа к информационным системам. // Управление экономикой и финансами вуза: практики российских университетов: Вып. 2 / сост. Д.Г.Сандлер, А.К.Клюев. - Екатеринбург: Изд-во Урал. ун-та, 2018. - с. 44.
3. Захаров Г.В. Формирование системы управления развитием консультационных услуг в сфере высшего экономического образования. // Инновации и инвестиции, №11, 2022. - с. 99.
4. Atalikova G.Sh., Asadov Sh.F. Maslahat va konsalting xizmatlari: huquqiy tartibga solish masalalari. // Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2022, Volume2, Issue2, ISSN 2181-1784. - 302 b.

5. Islomov B.Z. Oliy ta’lim muassalarida moliyaviy resurslarni boshqarishning joriy holati tahlili. // Scientific Journal of “International Finance & Accounting”, Issue3, June, 2025. ISSN: 2181-1016